



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</b> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<b>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<b>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</b> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<b>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</b> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<b>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</b> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<b>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<b>KORXONALAR MOLIYAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</b> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<b>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</b> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<b>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</b> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<b>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</b> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<b>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</b> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<b>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</b> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<b>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</b> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<b>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</b> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<b>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</b> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshv Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI

Adilova Gulnur Djurabayevna

"Sug'urta ishi" kafedrası PhD, dotsent  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
[adilova\\_gulnur@tfi.uz](mailto:adilova_gulnur@tfi.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sug'urta xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish va uning qamrovini oshirishning dolzarb yo'nalishlari tahlil qilingan bo'lib, unda zamonaviy iqtisodiy sharoitda sug'urta tizimi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xatarlarni kamaytirishning muhim vositalari yoritilgan. Maqolada raqamli texnologiyalarni joriy etish, sug'urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, aholining sug'urta madaniyatini oshirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi asosiy omillar ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu chora-tadbirlar sug'urta bozorining qamrovini kengaytirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Bozor modernizatsiyasi, qamrov, raqamli texnologiyalar, moliyaviy barqarorlik sug'urta bozori, sug'urta mahsuloti, sug'urta agenti, assistance, adjuster, surveyor, ixtiyoriy sug'urta, sug'urta mukofoti, sug'urta qoplami, sug'urta ta'riflari, shaxsiy sug'urta, tibbiy sug'urta, baxtsiz hodisa, sug'urta xizmati.

**Abstract:** This article analyzes the current directions for modernizing the insurance services market and expanding its coverage. In the modern economic context, the insurance system is highlighted as an important tool for ensuring financial stability and mitigating risks. The study examines key factors such as the implementation of digital technologies, diversification of insurance products, improvement of the population's insurance literacy, and state support. The results indicate that these measures contribute to expanding the market coverage and improving the quality of insurance services.

**Keywords:** Market modernization, coverage, digital technologies, financial stability, insurance market, insurance product, insurance agent, assistance, adjuster, surveyor, voluntary insurance, insurance premium, insurance coverage, insurance definitions, personal insurance, health insurance, accident, insurance service

**Абстрактный:** В статье анализируются актуальные направления модернизации рынка страховых услуг и расширения его охвата. В современных экономических условиях система страхования рассматривается как важный инструмент обеспечения финансовой стабильности и снижения рисков. В статье рассматриваются такие основные факторы, как внедрение цифровых технологий, диверсификация страховых продуктов, повышение страховой культуры населения и государственная поддержка. Результаты исследования показывают, что данные меры способствуют расширению охвата страхового рынка и повышению качества предоставляемых услуг.

**Ключевые слова:** Модернизация рынка, охват, цифровые технологии, финансовая стабильность, страховой рынок, страховой продукт, страховой агент, ассистанс, аджастер, сюрвейер, добровольное страхование, страховая премия, страховое покрытие, определения страхования, личное страхование, медицинское страхование, несчастный случай, страховая услуга

### Kirish (Введение/Introduction).

Jahon iqtisodiyotida sug'urta xizmatlari bozori moliyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida muhim o'rin egallaydi. Sug'urta mexanizmi iqtisodiy subyektlar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli risklarni kamaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirishga xizmat qiladi[1].

Bugungi globalashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida sug'urta bozorida innovatsion mahsulotlar, insurtech texnologiyalar, onlayn sug'urta xizmatlari jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sug'urta xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish nafaqat texnik yangilanish, balki institutsional islohotlar, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda sug'urta madaniyatini oshirishni ham o'z ichiga oladi.

Sug'urta sohasi zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Sug'urta tizimi jismoniy shaxslar, korxonalar va davlat organlarini moliyaviy yo'qotishlardan himoya qilish bilan bir qatorda investitsiya faoliyatini rag'batlantiradi, kapitalni samarali taqsimlashga xizmat qiladi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu sababli sug'urta bozorining rivojlanishi va modernizatsiyasi mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va moliyaviy barqarorligi nuqtai nazaridan strategik ahamiyatga ega hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy iqtisodiyot sharoiti tez o'zgarishi, texnologik yangilanishlar, shuningdek, aholining moliyaviy madaniyati va ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi sug'urta xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish zaruratini kuchaytirdi. Raqamli texnologiyalarni

joriy etish, onlayn sug'urta platformalari yaratish va xizmatlarni avtomatlashtirish jarayonlari nafaqat mijozlar tajribasini yaxshilash, balki operatsion xarajatlarni kamaytirish, sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirish va bozor qamrovini kengaytirish imkonini yaratib berdi.

### Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Sug'urta xizmatlari bozorining rivojlanish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xorijiy olimlar sug'urtaning moliyaviy tizimdagi rolini, uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hamda risklarni boshqarishdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilganlar. Jumladan, V.V. Kovalyov o'z tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va investitsiya jarayonlaridagi rolga alohida e'tibor qaratgan[2]. Uning fikricha, rivojlangan sug'urta bozori moliya bozorlarining barqaror ishlashiga xizmat qiladi. P. Skipper va H. Klein sug'urta bozorini liberallashtirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va raqobat muhitini kuchaytirish sug'urta xizmatlari qamrovini oshirishning asosiy omillari ekanligini ta'kidlaydilar[3].

Shuningdek, J. Outreville tadqiqotlarida sug'urta bozorining rivojlanishi aholi daromadlari, moliyaviy savodxonlik va institutsional sifat bilan chambarchas bog'liq ekanligi asoslab berilgan[4]. Uning ilmiy ishlarida sug'urta madaniyatini oshirish uzoq muddatli strategik vazifa sifatida ko'riladi. A. Zubets fikricha, "sug'urta mahsuloti - sug'urta shartnomasini tuzishda sug'urtalanuvchiga taqdim etiladigan asosiy va yordamchi xizmatlarning to'plamidir" [5]. Shunday qilib, sug'urta mahsuloti - sug'urta shartnomasi doirasida sug'urtalanuvchining ehtiyojini qondirishga qaratilgan ma'lum xizmatlar to'plamidir. Bunda,

1-jadval. Sug'urta mukofotlarning sug'urta turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi (mlrd. so'mda)<sup>1</sup>[8]

Ko'rsatkichlar	01.10.2024		01.10.2025		O'zgarish, %
	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	
<b>Jami</b>	<b>7 013 977</b>	<b>100%</b>	<b>9 793 707</b>	<b>100%</b>	<b>+39,6 %</b>
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	6 846 823	98%	9 230 026	94%	+34,8 %
- majburiy sug'urta	432 088	6%	593 711	6%	+37,4 %
- ixtiyoriy sug'urta	6 414 735	88%	8 636 315	91%	+34,6 %
Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	167 154	2%	563 681	6%	+237,2 %
- majburiy sug'urta	37 329	1%	52 196	1%	+39,8 %
- ixtiyoriy sug'urta	129 825	2%	511 485	5%	+294,0 %

sug'urta va qayta sug'urta sohasidagi xizmatlardan tashqari, bunday xizmatlarga muayyan sug'urta polisi doirasida ko'rsatiladigan yuridik va tashkiliy xizmatlardir.

Shu jihatdan, sug'urta mahsulotining tushunchasi sug'urta xizmatlarining tushunchasidan kengroq bo'lib, chunki u xizmatlarning boshqa turlarini ham o'z ichiga oladi.

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda raqamli sug'urta, insurtech, big data va sun'iy intellekt texnologiyalarining sug'urta bozoriga ta'siri masalalari ham keng yoritilmoqda. Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sug'urta xizmatlari bozorini modernizatsiya qilish ko'p qirrali jarayon bo'lib, u iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi.

#### Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, gruqlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida transformatsiya jarayonida tijorat banklari chakana xizmatlari va uning nazariy asoslari hamda tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari chakana xizmatlari va uning nazariy asoslaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

#### Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Sug'urta xizmatlari bozorining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari soni va taklif etilayotgan xizmatlar hajmi oshib borayotgan bo'lsa-da, sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi nisbatan pastligicha qolmoqda[6]. Sug'urta bozorida ko'plab sug'urta kompaniyalari faoliyat ko'rsatadi, biroq ularning ko'pchiligi kichik hajmdagi biznes subyektlari hisoblanadi. Sug'urta portfeli tarkibida avto-sug'urta va mol-mulkni sug'urtalash turlari yetakchi o'rinlarda bo'lib, hayot sug'urtasi, tibbiy sug'urta va ijtimoiy sug'urta segmentlari nisbatan kam ulushga ega[7]. Bu holat iste'molchilarning sug'urta mahsulotlarini tanlash erkinligi va ular o'rtasidagi raqobat darajasini cheklaydi.

Sug'urta kompaniyalarining hududiy taqsimoti ham nomutanosibdir — yirik shaharlar markazida faoliyat yuqori bo'lsa, qishloq joylarda

sug'urta xizmatlari mavjudligi cheklangan. Bu esa sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini mintaqaviy jihatdan nomutanosib qiladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston sug'urta bozorida **ixtiyoriy sug'urta turlari yetakchi o'rinni egallab bormoqda**. 2024-yilning jami sug'urta mukofotlarining 88 foizi ixtiyoriy sug'urta hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 6 foizi esa majburiy sug'urta turiga to'g'ri kelmoqda. 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 91 foizga yetgani kuzatilmog'da. Bu holatda sug'urta bozorida bozor mexanizmlarining kuchayib borayotganini va iste'molchilarning ongli ravishda sug'urta mahsulotlarini tanlay boshlaganini anglatadi. Majburiy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan mukofotlar hajmi mutlaq qiymatda oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy sug'urta mukofotlaridagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega. Xususan, 2023-yildagi statistik ma'lumotlarni kuzatilganda majburiy sug'urta ulushi 32,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning 10 oyi yakunida bu ko'rsatkich 24 foizga tushgan. Bu esa ixtiyoriy sug'urta turlarining diversifikatsiyasi va raqamli sug'urta mahsulotlarining rivojlanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ixtiyoriy sug'urta segmentida hayot sug'urtasi, mol-mulk sug'urtasi, tibbiy sug'urta va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash turlarining tez sur'atlarda rivojlanishi sug'urta bozorining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.

2-jadval. Sug'urta qoplamlarining sug'urta turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi (mlrd.so'mda)<sup>2</sup> [9]

Ko'rsatkichlar	01.10.2024		01.10.2025		O'zgarish, %
	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	jamiga nisbatan % da	
<b>Jami</b>	<b>1 633 854</b>	<b>100 %</b>	<b>1 912 324</b>	<b>100 %</b>	<b>+17,0 %</b>
Umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	1 536 217	94%	1 812 822	95%	+18,0 %
- majburiy sug'urta	263 563	16%	294 757	15%	+11,8 %
- ixtiyoriy sug'urta	1 272 655	78%	1 518 065	79%	+19,3 %
Hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta tashkilotlari, shu jumladan:	97 637	6%	99 502	5%	+1,9%
- majburiy sug'urta	10 076	1%	15 209	1%	+50,9 %
- ixtiyoriy sug'urta	87 561	5%	84 294	4%	-3,7%

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki 2024 yilda umumiy sohosi bo'yicha majburiy sug'urta turida 263 563 mln so'm, ixtiyoriy sug'urta turida esa 1 272 655 mln so'm sug'urta qoplamlari to'lab berilgan, hayotni sug'urta qilish sohasidagi sug'urta turlari bo'yicha esa ixtiyoriy sug'urta turida 87 561 mln so'm, majburiy turida esa 10 076 mln so'm sug'urta qoplamlari to'lab berilgan. 2024 yilda umumiy sug'urta sohosi va hayotni sug'urta qilish sohosi bo'yicha jami sug'urta qoplamlari 1 633 854 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa 2025 yilga kelib esa bu ko'rsatkichlar sekin asta ko'tarilgani kuzatildi. Shuningdek, 2025 yilda umumiy sug'urta sohasidagi sug'urta turlari bo'yicha jami 1 812 822 mln so'm sug'urta qoplamlari to'langan bo'lsa, hayotni sug'urta

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar agentligi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi istiqbolli loyihalar agentligi ma'lumoti asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qilish sohasidagi sug'urta turlari bo'yicha 99 502 mln so'm qoplangani prognoz qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sug'urta mahsulotlarining tarkibi va sifatini ham qayta ishlab chiqish talab etadi. Mavjud sug'urta mahsulotlari ko'pincha standartlashtirilgan bo'lib, aholining turli ijtimoiy qatlamlari va biznes subyektlarining real ehtiyojlarini to'liq qondirmaydi. Xususan, kichik biznes, fermer xo'jaliklari va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun moslashuvchan sug'urta mahsulotlari yetarli emas. Bu esa mazkur qatlamlarning sug'urta tizimidan chetda qolishiga olib kelmoqda.

Bozorni modernizatsiya qilish yo'lida raqobat muhitini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Sug'urta kompaniyalari o'rtasida sog'lom raqobatning yetarli darajada shakllanmaganligi xizmatlar sifatining oshishiga va yangi innovatsion mahsulotlarning paydo bo'lishiga to'sqinlik qilmoqda [10]. Bundan tashqari, qayta sug'urtalash mexanizmlarining cheklanganligi yirik risklarni qoplash imkoniyatlarini pasaytiradi, bu esa sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

#### **Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion).**

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sug'urta xizmatlari bozorining yuqori darajada rivojlanishi yalpi ichki mahsulot o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [11]. Biroq rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining iqtisodiyotdagi ulushi nisbatan past bo'lib, aholining sug'urta bilan qamrov darajasi yetarli emas. Bu holat sug'urta bozorini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va sug'urta xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishni taqozo etadi.

Shunday ekan sug'urta xizmatlarini jadal rivojlantirish uchun quyidagi takliflar berilmoqda:

Yangi innovatsion sug'urta mahsulotlarini joriy etish va talab yuqori bo'lgan an'anaviy mahsulotlarni rivojlantirish orqali ko'rsatilayotgan sug'urta xizmatlari hajmlarini, turlarini kengaytirish va sifatini oshirish;

Majburiy sug'urtaning yangi turlarini, shu jumladan davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda ko'chmas mulk va qishloq xo'jaligi xavflarini sug'urtalashni joriy etib borish;

Sug'urta faoliyatini tashkil etish va tartibga solish sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish, sug'urta xizmatlarining elektron turlarini faol joriy etish va rivojlantirish; [12].

Hududiy sug'urta xizmatlar bozorida faoliyat ko'rsatayotgan sug'urta tashkilotlari filiallari va ularning Toshkent shahrida joylashgan bosh ofislari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimini qayta ko'rib chiqish. Bunga asosiy sabab, bosh kompaniya o'z filiallarining sug'urta xizmatlarini ko'rsatish, ayniqsa sug'urta qoplamalarini to'lash bo'yicha huquqlarini ancha cheklab qo'ygan. Bu borada filiallarga mustaqillik berish, ya'ni o'z hududida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari natijasida etkazilgan zararlarni qoplash masalasini o'zlari hal qilishlarini maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):**

1. Straxovanie : uchebnik / [E. G. Knyazeva, O. A. Boytush, T. D. Odinkova, Ye. A. Razumovskaya, L. I. Yuzvovich, Yu. T. Axvlediani] ; pod общ. red. Ye. G. Knyazevoy ; M-vo nauki i v'ysshhego obr. Ros. Federatsii, Ural. gos. ekon. un-t. – Yekaterinburg : Izd-vo Ural. un-ta, 2019. – 241 s.
2. Kovalyov V. V. Finansy i kredit. – M.: Finansy i statistika, 2018.
3. Skipper H., Klein R. Insurance Regulation in Developing Countries. – Washington: World Bank, 2015.
4. Outreville J. F. Theory and Practice of Insurance. – New York: Springer, 2016.
5. Зубец А. “Маркетинговые исследования страхового рынка”. М.: Центр экономики и маркетинга, 2002. 224 с.
6. Abduraxmonov I., Abduraimova M., Abdullaeva N. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. Darslik. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 420 b.
7. Yuldashev O., Zakirxodjaeva Sh. Hayot sug'urtasi. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2019. –384 b.
8. Turovskaya M.S., Kojuxina K.A., Shkvarok V.M. Straxovanie: Uchebnoe posobie. – SPb.: Universitet pri MPA YevrAzES, 2021. – 201 c.
9. <https://www.mf.uz>.
10. <http://www.insur-info.ru>
10. Cockrell H.A.L., Green Edwin, The British Insurance Business. - London: Heinemann Educational Books, 2016.
11. <https://www.thebalancesmb.com/insurance-company-ratings>, A.M.Best, Moody S, Standart&Poors, Insurance Company Ratings.
12. Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23–24. [https://doi.org/10.55439/INS/vol2\\_iss6/341](https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341)